

## **Moddiy-texnik ta'minot boshqarmasining asosiy vazifalari:**

vazirlikning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va tuzilmalarining moddiy-texnikaviy ta'minotini olib borish;

vazirlikning Markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va tuzilmalarining moddiy-texnika bazasini yaratish, texnika uskuna, jihozlarini yangilash, takomillashtirish, asbob-uskunalar, texnik vositalarini soz hamda shay holatda saqlash;

moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha bitim va shartnomalarni Moliya-iqtisod boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlashda ishtirok etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moddiy-texnika resurslari zahirasini tashkil etishni muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirish;

moddiy-texnika ta'minoti masalalari bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, bajarilishini nazorat qilish;

vazirlikning hududiy boshqarmalari va tuzilmalardagi texnika, ta'minot buyumlarining holatini nazorat qilish;

avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish davrida joylardagi mahalliy hokimiyat organlari va harbiy qo'mondonliklar bilan hamkorlikda avariya-qutqaruv kuchlarining moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha hamkorlik ishlarini tashkil etish;

Respublika hududidagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bartaraf etish tadbirlarida ishtirok etish, zaruriyat yuzaga kelganda Respublika hududidan tashqarida sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar oqibatida talofat (jabr) ko'rgan aholiga insonparvarlik yordamini etkazib berishda ishtirok etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdagi avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni olib borishda qaror qabul qilish uchun moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha hisoblar va takliflar tayyorlash hamda taqdim etish;

barcha tizimlarda avtotexnika, mexanizmlarining to'g'ri va samarali eksploatatsiya qilish nazoratini ta'minlash;

yoqilg'i-moylash mahsulotlaridan samarali va tejimli foydalanishni ta'minlash.

### **Moddiy-texnik ta'minot boshqarmasining asosiy funksiyalari:**

vazirlikning hududiy boshqarmalari va tuzilmalaridagi moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha tashkiliy-uslubiy ishlarni olib boradi, ularga amaliy yordam ko'rsatadi, nazoratini olib boradi va zamonaviy texnologiyalar, samarali tajribalarni tadbiq etadi;

moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha kundalik va istiqboldagi rejalarni ishlab chiqadi;

har yil hududiy boshqarmalar va tuzilmalarning moddiy-texnika ta'minoti, omborlarda moddiy boyliklarni saqlash, hisobini yuritish, texnik vositalardan to'g'ri foydalanish sohasida vazirlikning Moliya-iqtisod boshqarmasi bilan birgalikda ma'muriy-xo'jalik bo'limlari boshliqlari bilan o'quv-uslubiy yig'inlar tashkil etadi va o'tkazadi;

boshqarma shaxsiy tarkibini malakali kadrlar bilan to'ldirish, ularni hamda moddiy javobgar xodimlarni kasbiy mahoratini oshirishni tashkil etadi va nazoratini amalga oshiradi;

boshqarma shaxsiy tarkibinining xarbiy va mehnat intizomini mustahkamlash tadbirlarini ishlab chiqadi;

xizmat muddatlarini o'tab bo'lgan moddiy texnika, avtoulovlar va boshqa buyum hamda asbob-uskuna, jixozlarni o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarish, o'rnatilgan tartibda ikkilamchi buyumlar qabul qilish korxonalariga topshirish ishlarini nazoratini tashkillashtiradi;